



NAVOIY TOSHBOSMA DEVONLARIDA RUBOIY JANRINING O'RNI

Muallif: Dilnoza Rustamova¹

Affiliyatsiya: O'ZR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20205317>

ANNOTATSIYA

Maqolada toshbosma terma devonlarda ruboiy janrining ahamiyati ko'rsatilib, uning joriy nashrlardagi matni o'zaro qiyoslangan hamda farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: toshbosma, devon, ruboiy, joriy nashrlar, falsafiy-lirik miniatyura.

Navoiy ruboiylari bosma kitoblarning 1900-yildan keyingi nashrlariga kirgan. Dastlabki devonlarda she'rlar soni ko'p bo'lsa-da, ruboiy uchramaydi. O'zbek adabiyotida ruboiy genezisi, vazni, adabiy hayotdagi janr mavqeini o'rgangan adabiyotshunos I.Haqqulov XIX asr jonli jarayonida she'rning bu turi faol ishtirok etmagani, 30-yillardagina Shayxzoda lirik namunalarida ko'rina boshlaganini yozadi [3:97]. Zotan, ayni vaziyat chop etiladigan mumtoz asarlarning tarkibiga ham ta'sir o'tkazgan bo'lishi tabiiy holdir. Shunday qilib, hijriy 1318-yilda Abdulg'afur kotib №6 nusxaga "G'aroyib us-sig'ar"dan 35 ruboiyni ko'chiradi. Tanlab olingan to'rtliklarda diniy, axloqiy, falsafiy mavzu yetakchilik qiladi. Ulardan biri №6 (144-sahifa), №229 (130-sahifa) va №944-nusxalarda (108-sahifa) quyidagicha kelgan:

*Yuz ko'zgosiy kim bag' ara aylarde shتاب
Siyab qilur erdi taharruk bila tob.
Day qildi bu simobni andoq ko'zgu
Kim ko'zgu aning qoshida bo'lg'ay siymob.*

Ruboiyning joriy nashrdagi matni esa bunday berilgan:

*Su ko'zqusini bog' aro aylarda shitob,
Siymob qilur erdi taharruk bila tob.
Day qildi bu simobni andoq ko'zgu
Kim ko'zgu aning qoshida bo'lg'ay siymob.*

Ko'rinib turganidek, birinchi misradagi "Su ko'zqusini" birikmasi toshbosmada *Yuz ko'zgosiy kim* tarzida berilgan. Navoiy lirikasida shunday jumla bilan boshlanuvchi "Yuzi ko'zqusida aksini gar ko'rguzmadi Laylo" [1:13] misrali hamd g'azali mavjud. Ammo ruboiy mazmuni joriy nashrdagi matn orqali aniq anglashiladi. Ya'ni bog' ichida ko'zgu kabi tiniq suv shunaqangi shitob bilan oqardiki, uning eshilib harakatlanishi beqarorlik kasb etardi. Bir kuni qish keldi-yu, suv muzlab ko'zguga aylandi. Unga qaragan haqiqiy ko'zgu esa simobdek erib ketdi. She'rda tashbihi aks san'atidan foydalanib, dastlab ko'zgu simobga, so'ng__simob ko'zguga o'xshatilgan. Toshbosmadagi farqli jumlada esa yor yuzining ko'zgusi bog' ichidan shitob bilan o'tgani kabi keyingi misralarga mazmunan bog'lanmaydigan tushuncha kiritilgan.

Ushbu ruboiy falsafiy mavzudagi asarlar sirasiga kiradi. Yoshlik shoshqin daryoga o'xshaydi. U beqarorlik, har narsani qilishga qodir hisoblash, energiyaga to'lib yuradigan davr. Ammo bir kuni umrning qishi keladi-yu, qarilik, kasallik, qiyinchilik uni toblay boshlaydi. Boshiga kelgan savdolardan odam donishmandga aylanadi, fe'li silliqlashadi. Endi u boshqalarga oyna tutishga, hayot hikmatini ko'rsatishga qodir bo'ladi. Professor I.S.Braginskiy bu janrni "falsafiy-lirik miniatyura" [2:81] deb atarkan, she'rda aynan yuqoridagi jihat ustunlik qilishiga urg'u beradi.

Navoiy ruboiylari to'rtala misraning qofiyalanishi va ko'pchiligida radif istifoda etilishi kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi.[4:80] №6 (148-sahifa), №22 (110-sahifa), №220-toshbosma (138-sahifa) devonlardagi "bois" radifli taronai ruboiy matni quyidagicha kelgan:

بولدى مېنىڭ بولماگىمغە سودا باعث

سوداغه هوايى جام سهبا باعث.

سوداغه داغى دىر چليپا باعث

بو بارچه غه اول دلبرى ترسا باعث.

Ushbu to'rtlik №944 (107-sahifa) joriy nashrda esa bunday kelgan:

Bo'ldi mening o'lmagimga savdo bois,

Savdog'a havoyi jomi sahbo bois.

Sahbog'a dag'i dayru chalipo bois,

Bu barchag'a ul dilbari tarso bois. [1:395]

Ikki nashr qiyosidan ko'rinadiki, "o'lmagimda" so'zi toshbosmada *بولماگىمغە* tarzida xato ko'chirilgan. Zero, shoir bir misraning o'zida ikki marta "bo'ldi" deb ishlatishi mumkin emas, ikkinchidan, baytda lirik qahramon kuchli ehtirosiga berilishdan ahvoli o'lmaklikkacha borganini aytmoqda. Bu shaydolikka esa qadahdagi qizil may, ya'ni ishq sabab bo'lgan. Oshiq mayni mayxonadaligi sabab ichadi, bularning barchasiga sabab esa o'sha dilni tortuvchi nasroniy qiz ekanligi ayon bo'ladi. Ikkinchi baytdagi "sahbog'a" o'rnida "سوداغا" so'zining kelishi esa tartibni buzadi. Chunki Navoiy dastavval oqibatni keyin birma-bir sabablarni sanaydi.

Ba'zan devonni ko'chirayotgan kotib matnning mazmun va shakl butunligiga e'tibor bermay, muraddaf ruboiyning hatto radifini ham o'zgartirib yuborgan. Jumladan, №229 (138-sahifa), №944 (114-sahifa), №22 (114-sahifa) nusxalardagi ruboiy matni quyidagicha:

جاندين سېنى كۆب سيوارمىن اى جان عزيز

سندىن سېنى كۆب سيوارمىن اى عمرى عزيز.

هر نيچه سويماك اندىن ارتوق بولماس

اندىن سېنى كۆب سيورمىن اى عمرى عزيز.

Joriy nashrdagi "G'aroyib us-sig'ar"ning 47-ruboiysi matni esa bunday kelgan:

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har neniki, sevmak ondin ortuq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz. [1:398]

Ushbu ruboiy ko'chirilgan toshbosma devonlarning dastlabkisi №229-nusxa Mullo Zafar ibn Bekmuhammad tomonidan kitobat qilinib, il'in bosmaxonasida chop qilingan bo'lsa, 944-nusxa 1909-yilda Mullo Yusufjon ibn Mullo Zokirjon tomonidan va 22-nusxa Abdussalom ibn Mullo Abdurahmon tomonidan ko'chirilib, G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida nashr etilgan. Har birida ruboiylar soni 75 tadan. Demak, kotiblar bir manbaga tayanib, ayni xatoga yo'l qo'ygan yoxud dastlabki nusxadan keyingilari namuna olgan. Shunday qilib, birinchi misradagi "ey umri aziz" undalmasi

o'rniga *ای جان عزیز* qo'llanib, radif tarkibi o'zgargan. Natijada, bir misrada "jon" so'zi ikki marta takrorlanib, matn badiiyatiga putur yetgan. "Sondin"ning *سیندین* deb o'qilishi "o'zingdan ham seni ko'p sevaman" degan ma'noni anglatgan. Qolaversa, "jondin", "sondin", "ondin" so'zlari ichki qofiyani hosil qilgan. Toshbosmadagi holatda esa ichki qofiya buziladi. "Neniki" so'zi *نیچه* tarzida xato ko'chirilib, bo'g'inlar soniga ta'sir qilgan. Umuman olganda, ruboiydagi matniy o'zgarishlar uni muallif redaksiyasidan uzoqlashtirgan.

Toshbosma devonlar va joriy nashrlar davr nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqindir. Ularning o'zaro qiyosida esa asosan harf va so'z almashinuvi hamda arabiy jumalarning farqlanishi bilan bog'liq jihatlar ko'proq kuzatildi. Ayrim o'rinlarda joriy nashrlardagi xatolar toshbosma nusxada to'g'ri shaklda kelgani bilan bog'liq jihatlar ushbu manbalarning ham Navoiy asarlarining kelgusi nashrlarida qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkinligini izohlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011. – B. 398.
2. Брагинский И.С. Очерки из истории таджикской литературы. – Душанбе. 1956. – С.81.
3. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 97.
4. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан. 1983. – Б. 80.